**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor G.Rixsiyeva
______________
2021 yil “28” 08

# ANTROPOLOGIK VA ETNOLOGIK TADQIQOT USULLARI

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 220000 – Gumanitar fanlar |
| **Mutaxassislik:** | 70230501 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya |

**Toshkent – 2021**

| Fan/modul kodi<br>AETU104 | O'quv yili<br>2021-2022 | Semestr<br>2 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Antropologik va etnologik tadqiqot usullari | | 60 | 60 | 120 |

2. **I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarga antropologik tadqiqotlarni amalga oshirish usullari haqida tushuncha berish va etnologik ekspeditsiyalar tashkil etish, o'tkazishga oid bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdan iboratdir.

**Fanning vazifasi** - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, magistrlik dissertatsiyasi mavzusini yoritishda etnografik ekspeditsiyalarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazish, dala ma'lumotlaridan foydalanishni o'rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Kirish, fanning maqsad va vazifalari.**

Fanning maqsad va vazifalari, antropologik va etnologik dala tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazish hozirgi davrning dolzarb talabi ekanligi, qisqa muddatli va statsionar uslubda ekspeditsiyalar o'tkazishning o'ziga xos tomonlari, tadqiqotchi talabalarning dala hujjatlarini to'ldirishning qoidalari va uni tabiiy sharoitga qarab saqlashning ba'zi usullari, chizma ma'lumotlar va fotosuratlarni saqlashning ba'zi qoidalari bilan dala etnografik tadqiqotlar o'tkazish usullari va ularning turlari kabi masalalar bilan tanishtirish, mavjud ilmiy adabiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish.

**2-mavzu. Antropologik tadqiqot usullari.**

Insonning madaniy o'zgarishi, etnografiya, antropologiyada hamda boshqa zamonaviy ijtimoiy fanlarda qo'llaniladigan asosiy zamonaviy tadqiqot usuli ekanligi, Antropologiyada tadqiqot olib borishda qo'llaniladigan fieldwork usullari: kuzatish usullari, ishtirokchi sifatida kuzatish, jarayonda ishtirok etmay kuzatish, etnografik usul, qiyosiy solishtirish, refleks xolat, Intersubyektivlik. Tahlil va uning turlari: sifat va miqdoriy tahlil, pozitiv yondashuv, Etnografik tahlil, Domen tahlili, Taxonomik tahlil.

**3-mavzu. Ekspeditsiya, dala tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazish.**

| | |
|---|---|
| | Dala enografik tadqiqotlar o‘tkazishga tayyorgarlik va uning nazariy jihatlari: so‘rovnoma va uning turlari; So‘rovnoma tayyorlashning hududiy, ijtimoiy kompomentlari; Hujjatlar to‘ldirishning qoidalari; Dala tadqiqotlarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash usullari; Xorijiy tajribalar.<br>**4-mavzu. Xalqlarning an’anaviy xo‘jaligini tadqiq etish.**<br>Arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalar, dala tadqiqotlari orqali to‘plangan ma‘lumotlarni tahlil qilish, turli tarixiy davrlarga xos bo‘lgan an’anaviy xo‘jalik turlarini aniqlash, xo‘jalik an’analarini tipologiyalashtirish, an’anaviy xo‘jalik turlarini xaritalash.<br>**5-mavzu. Turar joylar va xo‘jalik binolarini o‘rganish.**<br>Shahar, qishloq va aholi punktlarida turar-joylar va xo‘jalik binolarini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odat va marosimlarni, irimlarni o‘rganish. Moddiy madaniyatning bir qismi bo‘lgan uy-joylar va xo‘jalik-ma’muriy binolarni qurishda an’anaviy qurilish san’ati uslublaridan va qadimiy sharqona me’morchilik uslubidan foydalanishning afzalligi. Qishloqdagi uy-joylarning shaharlar bilan uzviy bog‘liqligi haqida, turar joylarni qurishda tarixiy, etnik, tabiiy-geografik muhitning ta’siri haqida ma’lumot berish. O‘zbekistonning turli viloyatlarida turar-joylar va xo‘jalik binolarning qurilishidagi umumiylik va o‘ziga xoslik. Uy-joylarni qurishda loyha-rejalaridagi xususiyatlarni ochib berish.<br>**6- mavzu. Kiyim-kechak, poyafzal va taqinchoqlarni o‘rganish.**<br>Tabiiy-geografik muhitning kiyimlarga ta’siri, ularning asosiy vazifalardan tashqari inson hayotida tutgan o‘rni haqida. Kiyim turlari: kundalik ustki va ichki kiyimlar, marosim kiyimlar va mavsumiy kiyimlar haqida ma’lumot. Keksa va o‘rta yoshdagi ayollarning an’anaviy kiyimlari. Ularni bichish va tikish bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odat va irimlar. Qiz bolalar kiyimdagi o‘ziga xos xususiyatlar. Bosh va oyoq kiyimlar. Ayollar kiyimidagi ijtimoiy mavqe va ayolning yoshi bilan bog‘liq farqlar haqida. Ayollarning an’anaviy taqinchoqlari, bezak va tumorlari.<br>Erkaklar va bolalar kiyimi. Erkaklar bosh kiyimi do‘ppilar va ularning xususiyatlari. Chilla ko‘ylagi. Bolalar kiyimidagi farqlar. Erkaklar va bolalar kiyimidagi an’anaviy elementlar. Erkaklarning kundalik va mavsumiy kiyimlari. Kiyimlarning hududiy xususiyatlari. Oyoq kiyimlari.<br>**7-mavzu. Uy-ro‘zg‘or buyumlari. (Idish tovoqlar).**<br>Taomlar. Oilada ishlatiladigan zarur bo‘lgan uy-ro‘zg‘or buyumlari. (Qozon tovoq, xurjun, ko‘za, qumg‘on, cho‘mich, kapgir va hakazo.) ning o‘ziga xosligi. Ularning xo‘jalik faoliyatining turlariga bog‘liq ekanligi, buyumlarning yasash uchun ishlatiladigan xom ashyo turlari. (Chorvadorlarda teri, yog‘ochdan yasalgan uy-ro‘zg‘or buyumlari, o‘troq dehqonchilik bilan mashhur aholida sopol chinni va shisha idishlarning ishlatilishi). O‘zbeklarning moddiy madaniyatida uy ro‘zg‘or buyumlarining an’anaviy xususiyatlarni o‘rganishning afzalliklari. Uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan bog‘liq urf-odat va irimlar. An’anaviy taom turlari. ularning xo‘jalik faoliyati bilan |



| | |
|---|---|
| | **Axborot manbalari**<br>13. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>14. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.<br>15. www.krugosvet.ru<br>16.www.mirknig.com<br>17.www.turklib.com<br>18. www.etnology.com<br>19. www. vk.com<br>20. www.centrasia.ru<br>21. www.yandex.ru |
| **7.** | O‘quv dasturi “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil “27” 08 dagi “1” – sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br><br>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil “28” 08 dagi “1” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>B.A.Odilov - TDSHU, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi, PhD. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>U.S. Abdullayev– AndMI, Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi professori, tarix fanlari doktori, professor.<br>A.R. Qayumov – O‘zRFA Tarix instituti, Etnologiya va antropologiya bo‘limi kata ilmiy xodimi, t.f.n., dots. |

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushoxada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

**6. Asosiy adabiyotlar**


1. Ashirov A. Etnologiya. –T.., 2014.
2. Doniyorov A.X., Bo‘riev O., Ashirov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: TDSHI, 2014.
3. Антропология иетнология: учебник для бакалавриата и магистратур / под ред. В.А. Тишкова. – М.: «КДУ», «Университетская книга », 2018. – 364 с. – doi: 10.31453/ kdu.ru.91304.
4. Поршнева О.С. Междисциплинарние методи в историко-антропологических исследованиях: Учеб. Пособие. –Екатеринбург: Изд-во Урал, ун-та, 2005. -136 с.

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va forovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
9. Yunusxadjayeva X.M., Isayeva D.X. Antropologiya. Darslik. Toshkent 2017. -162 b.
10. Sergiu Bălan. Ethnographic Method in Anthropological Research. Article. December, 2011: https://www.researchgate.net/publication/321161001
11. Edmund Leach. Social Anthropology. 1982. p.p. 253.
12. Nikishenkov A.A. Istoriya britanskoy sotsialnoy antropologii – Spb.: Iz datelsnvo Sank-Peterburgskogo universiteta, 2008. — 496 s.




bog‘liqligi. O‘zbek milliy taomlarining tarkibi va xususiyatlarning dala etnik tadqiqotlar davrida o‘rganish. Taomlarni tayyorlash va is’temol qilish bilan bog‘liq urf-odatlar. Kundalik va bayram toamlari. Nonlar. Idish tovoqlar va taomlarning xo‘jalik bilan uzviy bog‘liqligini o‘rganish.

**8- mavzu. Sotsial munosabatlar, ijtimoiy va maishiy turmush.**

Dala tadqiqotlari davomida etnos va etnik guruhlarning sotsial va ijtimoiy munosabatlarini oilaviy maishiy turmushini o‘rganish. Kishilarning ishlab chiqarish jarayonida o‘zaro munosabatlarni qishloq va shahar aholisining huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi qonun qoida udumlarni o‘rganish.

**9-mavzu. Ijtimoiy hayotni tashkil qilish bilan bog‘liq urf-odat va qoidalar.**

Ijtimoiy hayotni tashkil qilish bilan bog‘liq urf-odat va qoidalarni o‘rganishda jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar (mahalla-ko‘y, qishloq va shahar ahli va uning ishongan vakillari, oqsoqollari, ularning haq-huquqlari va vazifalari, jamoatchilikning ta’sir etish shakllari, erkak va ayollarning gaplari, ularning kelib chiqishi, oshna-og‘aynilar, hamkasabalar guruhi, aholining milliy tarkibi, milliy guruhlar va ularning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish ko‘zda tutiladi. Odamlar o‘rtasidagi munosabatlar va an’anaviy milliy qadriyatlarni, qo‘shnichilik va qarindosh-urug‘chilik munosabatlarini, mehmondo‘stlik an’analari, oilada ayolga, onaga munosabat, qariyalarga e’tibor va muruvvat, bola tarbiyasida odob va ahloq tushunchalari va normalarini tadqiq qilish mo‘ljallangan. Turli-tuman xalq bayramlari va jamoa yig‘inlari-yu ijtimoiy hayotning turli bo‘lmagan turlaridir. Etnik ekspeditsiyalar davomida bunday ma’lumotlarga ehtiyotkorlik bilan to‘ldirishlar kiritish lozim. Ijtimoiy turmushning ushbu sohalarini tadqiq qilishda uzoq muddatli tadqiqotlar o‘tkazishning samaralari haqida.

**10-mavzu. Oilaviy marosimlar.**

Oila va oilaviy munosabatlarni, uning ichki aloqalari, nikoh va qon-qarindoshlik munosabatlarini o‘rganish. Oilaning xo‘jaligi va maishiy turmushini o‘rganishda zamonaviy oilalarni o‘rganishda tarixiy-qiyosiy ma’lumotlarni afzalligi. Oilaviy munosabatlarni o‘rganishda iqtisodiy omillarni, sotsial-iqtisodiy va madaniy sohalarning ta’sirini o‘rganish. Oilaviy munosabatlarni o‘rganish va uning tarkibi va sonini aniqlashda shaxsiy kuzatuv va axborotchilar bilan suhbat uslublaridan foydalanish.

**11-mavzu. To‘ylar, xalq og‘zaki ijodiyoti.**

Oilaviy marosimlarning asosiy qismi bo‘lgan to‘ylar, (unashtirish, non sindirish, fotiha va nikoh to‘ylari va ularni o‘rganish). To‘ygacha bo‘lgan marosimlar kiyim - bichar va «ko‘rpa solar» marosimlarning o‘ziga xos xusumsiyatlarini o‘rganish.

**12-mavzu. Antropologik va etnologik tadqiqotlardagi zamonaviy konsepsiyalar.**

Ikkinchi jahon urushidan keyin mustamlakachilik tizimining yemirilishi etnologiyaning taraqqiyotiga ta’siri. Moris Godele, Klod Melissolarning

"ijtimoiy biologiya" konsepsiyasi, amerika madaniy antropologiyasida "madaniy ekologiya" nazariyasi. Fransuz Levi-Stros g'oyalari ta'siri. Amerika etnologlari orasida Klifford Girs va Rixard Ternerlarning qarashlari asosida shakllangan yangi germenevtika yo'nalishi. Ushbu yo'nalish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va natijalar. Yangi qo'shaloq fan sohalari "etnosotsiologiya", "etnopsixologiya", «etnolingvistika», «etnodemografiya» kabilarning paydo bo'lishi va ularning tadqiqot usullari.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kirish, fanning maqsad va vazifalari.
2. Antropologik tadqiqot usullari.
3. Ekspeditsiya, dala tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazish.
4. Xalqlarning an'anaviy xo'jaligini tadqiq etish.
5. Turar joylar va xo'jalik binolarini o'rganish.
6. Kiyim-kechak, poyafzal va taqinchoqlarni o'rganish.
7. Uy-ro'zg'or buyumlari. (Idish-tovoqlar).
8. Sotsial munosabatlar, ijtimoiy va maishiy turmush.
9. Ijtimoiy hayotni tashkil qilish bilan bog'liq urf-odat va qoidalar.
10. Oilaviy marosimlar.
11. To'ylar, xalq og'zaki ijodiyoti.
12. Antropologik va etnologik tadqiqotlardagi zamonaviy konsepsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Rasa: inson biologiyasidan zamonaviy asotirlargacha
2. Rasizm: kecha, bugun va ertaga
3. Til: uning inson hayotidagi o'rni



4. Shaxs madaniyatda
5. Madaniyat va bolalar dunyosi
6. Dunyo antropolog nazdida
7. Etnologiyaga kirish fanining maqsad va vazifalari. Adabiyotlar.
8. Etnologiya: kecha, bugun, ertaga
9. Etnologiyaning istiqbollari
10. Antropologiya va etnologiyaning istiqbollari
11. Antropologiyaning zamonaviy metodlari
12. Etnologiyaning metodlari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, konspektlar va slaydlar tayyorlanadi va uning taqdimoti tashkil qilinadi.

**3. V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetentsiyalar)**

**Magistr bilishi kerak**:

- Antropologik va etnologik tadqiqotlarning an'anaviy va zamonaviy usullari va amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va bajarilishi lozim bo'lgan muammolar haqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi**;
- Markaziy Osiyo mintaqasida antropologik va etnologik tadqiqotlarni tashkil etish, o'tkazish **ko'nikmalariga ega bo'lish**;
- Talaba antropologiya va etnologiya fani doirasida ilmiy tadqiqotlar bajarish, tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish, tarixiy ilmiy bilimlarning rivojlanishida antropologiya va etnologiya fanining o'rni va ro'li, ahamiyati xaqida malakaga ega **bo'lishi kerak.**

**4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**